



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2022-YIL

2022- yil uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

2022- yilda Xorazm viloyatida jami 4 878,4 mld. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.


Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022-yilda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **502,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilga nisbatan **87,7 %** ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilga nisbatan koʼrsatkich darajasidan **1,6 %** punktga kamaydi va **10,3 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %** yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **136,4 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,8 %** yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **99,2 %**) va Yangibozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,1 %** yoki 2021-yilga nisbatan **2,0 marta**) hissasiga toʼgʼri keldi.

2022- yil

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

3

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,6 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 0,6 foizga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 102,4 % ni tashkil etgan holda 2 372,6 mlrd. so‘m miqdorida bajarildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi %da

48,1
2021- yillik

48,6
2022- yillik



Ma’lumot uchun: 2022- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Urganch shahri (529,5 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 104,0 %) va Xiva tumaniga (356,2 mlrd. so‘m yoki 120,2 %) to‘g‘ri keldi.

2022- yil


Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan jami **251,6** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 626,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,2 %** va **94,8 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



2022- yil

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

5




**2022- yilda hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	4 878,4	251,6	5,2	4 626,7	94,8
Urganch sh.	1 011,9	126,3	12,5	885,6	87,5
Xiva sh.	343,7	4,1	1,2	339,6	98,8
tumanlar:					
Bog'ot	243,7	0,0	0,0	243,7	100,0
Gurlan	249,2	0,0	0,0	249,2	100,0
Qo'shko'pir	323,6	13,4	4,1	310,2	95,9
Urganch	529,4	35,0	6,6	494,5	93,4
Hazorasp	307,0	10,4	3,4	296,6	96,6
Tuproqqal'a	153,9	11,7	7,6	142,2	92,4
Xonqa	422,7	11,3	2,7	411,4	97,3
Xiva	535,4	17,6	3,3	517,9	96,7
Shovot	258,0	6,5	2,5	251,5	97,5
Yangiariq	221,1	6,1	2,7	215,1	97,3
Yangibozor	278,6	9,3	3,3	269,4	96,7



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil (yillik)**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **77,5 %** yoki **3 782,0** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



77,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **414,8** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,0 %** ni tashkil etdi.



11,0 %

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 480,4** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **39,1 %** ni tashkil etdi.



39,1%


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 886,8** mlrd. soʻmni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **49,9 %** ni tashkil etdi.



49,9%



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil (yillik)**

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	4 878,4	3 563,1	1 178,9	136,3
Urganch sh.	1 011,9	558,8	406,9	46,2
Xiva sh.	343,7	239,5	99,9	4,3
tumanlar:				
Bog'ot	243,7	188,3	51,7	3,6
Gurlan	249,2	224,3	22,6	2,3
Qo'shko'pir	323,6	238,2	83,8	1,6
Urganch	529,4	383,1	120,9	25,4
Hazorasp	307,0	261,6	31,8	13,6
Tuproqqa'l'a	153,9	122,2	29,4	2,4
Xonqa	422,7	304,2	104,1	14,4
Xiva	535,4	391,9	138,1	5,4
Shovot	258,0	240,8	8,0	9,2
Yangiariq	221,1	201,0	13,1	7,0
Yangibozor	278,6	209,2	68,7	0,7

2022- yilda
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mldr. so'm

Urganch sh.

1011,9



Xiva

535,4



Urganch

529,4



Xonqa

422,7



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (1011,9 mldr. so'm), Xiva (535,4 mldr. so'm), Urganch (529,4 mldr. so'm) hamda Xonqa tumanlariga (422,7 mldr. so'm) to'g'ri keldi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22

2022- yil

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

11



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yil

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

12